

11.06.2024

***"Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun yuzasidan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda***

Bugun Xorijiy filologiya fakulteti **"Ingliz tili va adabiyoti"** hamda **"Fakultetlararo chet tillar"** kafedralarida O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonunini mazmun-mohiyatini o'qituvchilar orasida targ'ib qilish maqsadida uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.



20.06.2024

*Xorijiy filologiya fakultetida yakuniy davlat attestatsiya sinovlarining og'zaki shakli o'tkazilmoqda*

**Urganch davlat universitetida Xorijiy filologiya fakultetining** bitiruvchi talabalari uchun ixtisoslik fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovlari ikki shaklda bo'lib o'tmoqda. Ayni paytda sinovlarning og'zaki shakli bo'lib o'tmoqda. Unda bitiruvchi talabalar chet tili o'qitish metodikasi hamda barcha nazariy fanlardan savollarga javob berishmoqda.

Jarayonlarda **DAK raisi sifatida Namangan davlat universiteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasini mudiri, f.f.d., professor Zohid Sadiqov** va fakultetning professor-o'qituvchilari ishtirok etmoqda. Imtihonlar davomida bitiruvchilarimiz to'rt yil mobaynida egallagan bilimlariga tayangan holda savollarga javob berishmoqda.



26.07.2024

## DISSERTATSIYA ISHLARI MUVAFFAQIYATLI HIMOYA QILINDI!

Bugun, 26-iyul kuni **Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02** Ilmiy kengashining navbatdagi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Unda **“O‘zbek tilshunosligi” kafedras**i o‘qituvchisi **Allaberganova Dilbarjon Atabekovna** 10.00.01 – O‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun **“Omon Matjon she‘riyati lingvopoetikasi”** mavzusida yozilgan dissertatsiya ishini 100 % ovoz bilan muvaffaqiyatli himoya qildi.

Shuningdek, mazkur kengash yig‘ilishida **Urganch davlat universiteti “Ingliz tili va adabiyoti” kafedras**i mudiri **Abidova Roxatoy Xudayberganovna** **“Minnatdorchilik nutqiy aktining lingvomadaniy va lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz va o‘zbek tillari misolida)”** mavzusidagi 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishini 100 % ovoz bilan muvaffaqiyatli himoya qildi.

*Universitet jamoasi nomidan har ikkala olimani ushbu yutuq bilan samimiy qutlab, ularga mustahkam sog‘lik, ilm yo‘lida yuksak parvozlar tilaymiz.*



07.09.2024

*UrDU da xalqaro FEP loyihasi haqida trening tashkil etildi*

7-sentabr kuni **Xorijiy filologiya fakultetida** AQShning Toshkentdagi elchixonasi hamda O'zbekiston Respublikasida Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashlarining filiali hamkorligida tashkil etilgan **Faculty Enrichment Program (FEP)** loyihasi to'g'risida seminar-trening o'tkazildi.

Seminarida **Xorijiy filologiya fakulteti dotsenti (Khorezm Alumni RAR) Feruza Masharipova** hamda **Raqamli ta'lim texnologiyalar markazi boshlig'i (FEP dasturi Alumni)**

**Sultonm Mahmud Polvanovlar** oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun tashkil etilgan dasturining 2025-yil bahorgi va kuzgi qabuli, to'rt oy davom etuvchi akademik malaka oshirish kursi hamda FEP dasturining mazmun-mohiyati haqida ma'lumotlar berishdi.

*Trening **Ingliz tili va adabiyoti** hamda **Fakultetlararo chet tillar kafedralari o'qituvchilari** ishtirokida o'tkazildi.*



11.09.2024

2024-yil 11-sentabridan 2025-yil 30-iyuniga qadar AQSh Davlat departamentining Ta'lim va madaniyat masalalari byurosi hamda Urganch davlat universiteti hamkorligida **Fulbrayt ETA ingliz tilini o'qitish dasturi assistent o'qituvchisi Wiley Roberts** oliygohda talaba-yoshlarga ingliz tilini yanada chuqurroq o'rgatishi uchun universitetda faoliyat olib borishi rejalashtirilgan. Shu munosabat bilan bugun dastur doirasida **Toshkentdagi AQSh elchixonasining Xalq diplomatiyasi, Ta'lim, Ingliz tili hamda Ta'lim almashunuvi dasturlari bo'yicha mas'ul xodimi Harris Lipskom, Xalq diplomatiyasi bo'yicha mutaxassis Utkirbek Tadjimov, Fulbright ETA - UrSU ingliz tilini o'qitish dasturi assistent o'qituvchilari Wiley Roberts hamda Jim Carmen Perry** Urganch davlat universitetiga tashrif buyurishdi. Mehmonlarni universitet ma'muriyati iliq qarshi olishdi. Dastlab dastur ishtirokchilari bilan **Xalqaro hamkorlik aloqalari bo'yicha prorektor G'.O'razboyev, Xorijiy filologiya fakulteti dekani Z.Jumaniyozov, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri R.Abidova** hamda **"The Access Microscholarship program"** loyihasi bo'yicha universitet koordinatori **F.Masharipovalarning** rasmiy uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Shundan so'ng, Xorijiy filologiya fakultetida Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchilari bilan uchrashuv o'tkazilib, amalga oshirilayotgan hamkorlikdan tomonlarning manmunligi hamda dasturdan ko'zlangan maqsad va vazifalar yuzasidan suhbat olib borildi.



25.09.2024

Hurmatli Urganch davlat universiteti jamoasi, shu yilning 28-sentabr kuni **Xorazm teleradiokompaniyasining** kechki dasturlarida "**Siz nima deysiz?**" tok-shousi efirga uzatiladi. Unda **Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchilari Gulchexra Raximova va Saodatjon Do'stmetovalar** o'z fikr-mulohazalari bilan ishtirok etadilar.

8.10.2024

**Janubiy Koreyaning Soonchunhyang universiteti delegatsiyasi UrDUga tashrif buyurdi** 8-oktabr kuni **Janubiy Koreyaning Soonchunhyang universiteti vakillari: Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i Suejung LEE, Samarqand Koreya markazi vakili Inyoung YOO, Xalqaro ta'limni qo'llab-quvvatlash markazi boshlig'i Jaesam LIM** Urganch davlat universitetiga tashrif buyurishdi. Dastlab delegatsiya a'zolari bilan **UrDU O'quv ishlari bo'yicha prorektori S.Xodjaniyozov, Xorijiy filologiya fakulteti dekani Z.Jumaniyozov, dekan o'rinbosari J.Kushmanov, Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i E.Yo'ldashev** hamda **loyiha rahbari, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini professori J.Ermetovalar** ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Muloqotda 2024/2025 o'quv yilida talabalar almashinuv dasturini hamkorlikda tashkil etish, Filologiya va tillarni o'qitish: koreys tili yo'nalishiga koreys tilidan dars mashg'ulotlari olib borish uchun mutaxassislarini jalb etish va King Sejong instituti dasturlarini joriy etishga kelishib oldindi. Shuningdek, Koreys tili o'qituvchilarini faoliyatini qo'llab-quvvatlash va KSLE loyihasi doirasida tashkil qilingan Filologiya va tillarni o'qitish (Koreys tili) yo'nalishi faoliyati bilan yaqindan tanishish hamda 2025-o'quv yili uchun chet el ko'ngillilar dasturlari bilan tanishish maqsad qilindi.

Mehmonlar uchrashuvdan so'ng, **Xorijiy filologiya fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish: koreys tili ta'lim yo'nalishi** talabalari bilan uchrashib, ular o'rtasida o'tkazilgan Hangul (Koreys alifbosi) bayramiga bag'ishlangan musobaqada ishtirok etdilar va eng chiroyli koreys yozuvi g'olibini aniqlab berib, sovg'alar ulashdilar.



**18.10.2024**

18 - oktabr kuni UrDU Madaniyat saroyida Xorijiy filologiya fakulteti **Ingliz tili va adabiyoti kafedrası** tomonidan **o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 35 yilligi** hamda **“O‘zbek tili bayrami kuni”** munosabati bilan bayram tadbiri o‘tkazildi. Unda kafedra professor-o‘qituvchilari, tyutorlar hamda talabalar ishtirok etishdi.

*Bayram tadbirida talabalar o‘zlarining badiiy chiqishlari bilan faol qatnashib, o‘zbek tilini madh etuvchi she‘rlarni ifodali bayon etdilar.*



**23.10.2024**

*UrDU o‘qituvchilari uchun xorijiy ekspert ishtirokida trening tashkil etildi*

23-oktabr sanasida **Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti** professor-o‘qituvchi va doktorantlariga **Nukus davlat pedagogika instituti** ham **Ma‘mun universitetida** ishlayotgan **AQSH Elchixonasi** tomonidan **Toshkent ELF (English Language Fellow)** dasturi bo'yicha **professor Djuzeppe Kyarmonte** tomonidan **“XXI asr ta‘lim berish: zamonaviy yondashuv va metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim”** bo'yicha seminar-trening o'tkazildi.

Treningda "Ingliz tili va adabiyoti", "Fakultetlararo chet tillar" kafedralari professor-o‘qituvchilari qatnashdi. Unda **Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti D.Mamirbayeva** va **Urganch davlat universiteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrası dotsenti F.Masharipovalar** yetakchi moderatorlik qilishdi.

*Trening davomida darsni samarali rejalashtirish, darsning SMART maqsadlariga erishish WEBB's DOK nazariyalarini amaliy mashg'ulotlar orqali tushuntirib berildi.*



2.11.2024

Joriy yilning 2-noyabr kuni **Urganch davlat universitetida** Koreya Respublikasi elchixonasi huzuridagi Koreya ta'lim markazi hamda Xorijiy filologiya fakulteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasida faoliyat olib borayotgan **KSLE** loyihasi vakillari ishtirokida "**Global Korea Scholarship**" mavzusida o'quv seminari o'tkazildi.

Uchrashuvda **kafedra professori J.Ermetova** va **O'zbekistondagi GKS sovrindorlari Z.Khaydarova, Kim Oksana** qatnashib, talaba-yoshlarga Koreyada ta'lim olish grant dasturi va imkoniyatlari haqida taqdimot qilib berdilar.

*Shuningdek, seminarda O'zbekistonda koreyashunoslikning bugungi kuni va istiqbollari, Koreyaning mamlakatshunoslik fanini o'qitishning samarali yo'llari bo'yicha ma'lumotlar aytili.*



4.11.2024

### **Urganch davlat universitetida 17 nafar xitoylik magistr talabalar o'qitilmoqda**

**Xitoy Xalq Respublikasining Gansu qishloq xo'jaligi universiteti bilan Urganch davlat universiteti** o'rtasida 2023-yil noyabr oyida imzolangan anglashuv memorandumiga binoan, **2024-yilning 2-8 noyabr** kunlari talabalar almashinuvining "**Language teaching school**" loyihasi doirasida **Gansu qishloq xo'jaligi universitetining 17 nafar magistr talabalari** o'qituvchilari **Xu Peng** hamda **Ma Xiaojie** boshchiligida Urganch davlat universitetida bilim va malaka oshirishmoqda.

Xitoylik talabalarga **Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasining** salohiyatli professor-o'qituvchilari ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish borasida o'z bilim, mahorati va tajribalarini o'rgatishmoqda.

Ayni paytda xitoylik talabalar Urganch davlat universiteti bilan yaqindan tanishib olgach, dars mashg'ulotlarini boshlab yuborishdi. Seminar mashg'ulotlaridan tashqari, Xorazm viloyatining turistik maskanlariga sayohat ham loyiha dasturidan joy olgan.



5.11.2024

*Ayni paytda Xitoy Xalq Respublikasining Gansu qishloq xo'jaligi universiteti magistr talabalarining Urganch davlat universitetidagi dars mashg'ulotlari qizg'in davom etmoqda.*

**Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasining professor-o'qituvchilari I.Baydjanova hamda Z.Matyokubovlar "Madaniyatlararo muloqot"** mavzusida dars jarayonlarini olib borishmoqda.

*Dastur orqali xitoylik talabalar chet tillarini ikkinchi til sifatida o'qitish borasida o'z bilim va mahoratlarini oshirishmoqda. Dars jarayonida turli qiziqarli innovatsion metodikalardan foydalanilmoqda.*



6.11.2024

*Urganch davlat universitetida Xitoy Xalq Respublikasining Gansu qishloq xo'jaligi universiteti magistr talabalarining dars mashg'ulotlari bugun ham davom etmoqda.*

Bugungi mashg'ulotlarda **Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedras** professor-o'qituvchilari **O.Ro'zmetova** hamda **Z.Po'latovalar** "ESP darslarida amaliy mashg'ulotlar" mavzusida olib borishmoqda.

*Xitoylik talabalarning "Language teaching school" loyihasi doirasida almashinuv dasturi 8-noyabr kuniga qadar davom etadi. Darslar interaktiv metodlar orqali tashkil etilib, talabalarda katta qiziqish uyg'otmoqda.*



7.11.2024

### **Xitoylik talabalarga sertifikatlar topshirildi**

2-8 noyabr kunlari talabalar almashinuvining "Language teaching school" loyihasi doirasida **Gansu qishloq xo'jaligi universitetining 17 nafar magistr talabalari o'qituvchilari Xu Peng** hamda **Ma Xiaojie** boshchiligida **Urganch davlat universitetida** ta'lim olishdi. Bir hafta mobaynida Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasining salohiyatli professor-o'qituvchilari xitoylik talabalarga ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish borasida o'z bilim, mahorati va tajribalarini o'rtoqlashishdi.

Bugun **Urganch davlat universiteti rektori B.Abdullayev** Gansu qishloq xo'jaligi universiteti o'qituvchilari va talabalari bilan uchrashib, samimiy muloqot olib bordi. Mehmonlarimiz tashkil etilgan ushbu almashinuv dasturidan mamnun ekanligini bildirib, oliygoh professor-o'qituvchilari tomonidan olib borilgan dars mashg'ulotlarining o'ziga xosligini e'tirof etishdi. Universitetning ozodaligi, talabalarga yaratilgan sharoitlar, ayniqsa, yotoqxonalaridagi qulayliklar ularga juda ma'qul bo'lganini ta'kidlashdi hamda Urganch davlat universitetiga yana kelish istagini bildirishdi. Shundan so'ng, loyiha ishtirokchilarga **rektor tomonidan sertifikatlar** topshirildi. Uchrashuv yakunida tomonlar o'z esdalik sovg'alarini bir-birlariga ulashishdi.

Eslatib o'tamiz, bugun **xitoylik talabalarining "Yoshlar va turizm" festivali doirasida Xorazmning turistik maskanlariga sayohat** qilishi rejalashtirilgan.



8.11.2024

Joriy yilning 3-10 noyabr kunlari **Portugaliyaning Tavira shahrida** bo'lib o'tayotgan **"18th interdisciplinary colloquium on proverbs"** nomli xalqaro konferensiyada **Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasini tayanch doktoranti D.Artikova** ham ishtirok etmoqda.

Mazkur konferensiyada universitet doktoranti **"Women stereotyping in Uzbek proverbs"** mavzusida ma'ruza qilib, konferensiya ishtirokchilari tomonidan berilgan savollarga javob berdi. *Bu kabi konferensiyalarda universitet o'qituvchilarining ishtiroki xalqaro miqyosda oliygoh nufuzini yanada oshirishga xizmat qilib, xorijiy mutaxassislar bilan tajriba almashishga imkon beradi.*



11.11.2024

*UrDU hamda NDPI talaba-qizlari o'rtasida "English Sport Club" doirasida sportning futbol turi bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi*

**Urganch davlat universitetida Xorijiy filologiya fakulteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasida 2201-guruhining "Team Tomaris" jamoasi hamda Nukus davlat pedagogika instituti "Ladybugs" jamoalari futbol bo'yicha bahs olib borishdi.**


**Musobaqa AQSH elchixonasi "English language Fellow" loyihasi doirasida NDPIda faoliyat yuritayotgan professor Djuzeppe Kyarmonte va Fulbrayt ETA ingliz tilini o'qitish dasturi assistent o'qituvchisi Wiley Roberts trenerligida hamda NDPI dotsenti Dina Mamirbayeva va UrDU "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasida dotsenti Feruza Masharipovalar mentorligida bo'lib o'tdi.**

*Musobaqa juda qizg'in va ko'tarinki ruhda bo'lib o'tib, talabalarning nafaqat sport va ingliz tili malakalarini, balki ikki oliygoh talabalari o'rtasida do'stlik rishtalarini ham mustahkamlashga xizmat qildi.*



28.11.2024

28-noyabr kuni **British Council loyihasi hisoblangan AELLCA** -Markaziy Osiyoda ingliz tilini o'qitishni rivojlantirish dasturi doirasida **Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, R.Abidova** Qozog'iston va O'zbekistondagi hozirgi va bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining karyerasini qo'llab-quvvatlash: PRESETT o'qitish va o'rganish uchun strategiyalar va tarmoqlar" ("Enabling and Sustaining the Career Progression of Current and Future Teachers of English Language in Kazakhstan and Uzbekistan: Strategies and Networking for PRESETT Teaching and Learning") nomli onlayn konferensiyada spiker sifatida ishtirok etdi. Ushbu uchrashuvda 200 dan ortiq ishtirokchilar qatnashdi.



4.12.2024

### UrDU o'qituvchilari uchun xorijiy ekspert ishtirokida trening tashkil etildi

● 2024-yil 4-dekabr kuni Urganch davlat universitetida AQSH elchixonasining Toshkent ELF (English Language Fellow) dasturi bo'yicha professori Djuzeppe Kyarmonte tomonidan "XXI asr ta'limi: baholash va natijalar" mavzusida mahorat darsi tashkil etildi.

Ushbu trening zamonaviy ta'lim talablarga javob beradigan innovatsion baholash uslublarini qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirishda muhim hisoblanib, unda ishtirokchilar tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlarini rivojlantirishga qaratilgan baholash usullari bo'yicha zarur tushuncha va nazariyalarga ega bo'lishdi.

Treningda **Ingliz tili va adabiyoti kafedrası** professor-o'qituvchilari qatnashdi. Unda **Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti D.Mamirbayeva** va **UrDU Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti F.Masharipovalar** moderatorklik qilishdi.

*Mazkur trening o'qituvchilarga samarali va dinamik ta'lim muhitini shakllantirish uchun amaliy vositalar va strategiyalarni taqdim etishi bilan alohida ahamiyatga ega bo'ldi.*



6.12.2024

**Xorijiy filologiya fakultetidan xabarlar...**

6-dekabr kuni **Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, Xorazm viloyat kengashi deputati Y.Surmilova** tomonidan **“Yangilangan Konstitutsiya - huquqlarning kafolati”** mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir uyushtirildi. Unda **O'zbekiston Respublikasi Ekologik partiyasi Urganch shahar partiya tashkiloti raisi Z.Masharipova, viloyat partiya tashkiloti rais o'rinbosari B.Kalandarovlar** mehmon sifatida ishtirok etib, Konstitutsiya davlatimizning bosh qonuni, huquq va erkinliklarimiz kafolati ekanligi haqida so'z yuritishdi.

Shuningdek, fakultetda **“8 dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilingan kun”** munosabati bilan tadbir o'tkazildi. Unda universitet **Bosh yuristkonsulti, 2-darajali yurist, yu.f.d (PhD), dotsent Sh.Atayev** hamda **UrDU profilaktika inspektori Z.Allanazarovalar** mehmon sifatida ishtirok etib, talabalarga mavzu yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi.



13.12.2024

### **Xorijiy filologiya fakultetida Yangi yil shukuhi...**

13-dekabr kuni Urganch davlat universiteti **Xorijiy filologiya fakultetida "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasida katta o'qituvchisi S.Atadjanova** tomonidan qo'l mehnati bilan yangi yil sahnasi yasaldi.

Fakultet o'qituvchilari ham bu jarayonda o'z hissalarini qo'shdilar va bunday tashabbuslar talabalar orasida bayram ruhini kuchaytirib, insonlarga bayramona kayfiyat ulashadi.



23.12.2024

Joriy yilning dekabr oyi uchinchi haftasidan boshlab **Urganch davlat universiteti qoshidagi Qo'shko'pir tumani 1-son hamda Yangiariq tumani 2-son Kasb-hunar maktablari** faoliyatini yanada rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda ish beruvchilar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish bo'yicha tuzilgan yo'l xaritasi ijrosini ta'minlash maqsadida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xususan, universitetning **Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası** tomonidan **"Ingliz tili"** fanidan o'quvchilarni og'zaki muloqotga o'rgatish bo'yicha yillik o'quv kurslari tashkil qilindi. Mazkur politexnikumlardagi dars mashg'ulotlari kafedra **professor-o'qituvchilari O.Ro'zmetov va Z.Normetov**alar tomonidan olib borilmoqda.



27.12.2024

27-dekabr kuni **II O'zbekiston-Ozarbayjon ta'lim sohasidagi tadqiqotlar va innovatsiyalar bo'yicha "Madaniy meros va uning ta'limga ta'siri"** mavzusida akademik forum tashkil etildi. Unda **Urganch davlat universiteti rektori v.v.b S.Xodjaniyozov** boshchiligida **Xorijiy filologiya fakulteti dekani Z.Jumaniyozov**, **"Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasini mudiri R.Abidova** hamda kafedra o'qituvchilaridan **O.Ruzmetova**, **O'.Ahmedovalar** o'z ma'ruzalari bilan ishtirok qilishdi. *Konferensiyadan asosiy maqsad xalqaro almashinuvni targ'ib qilish, madaniyatlararo munosabatlarni rivojlantirish, fanlararo bahs-munozaralarni qo'llab-quvvatlash hamda yangi bilimlarni kashf etishdan iboratdir.*



03.01.2025

### Harbiy xizmatchilar o'rtasida ingliz tili viktorinasi o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-may kunidagi 5117-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **Milliy gvardiya Xorazm viloyati bo'yicha boshqarmasida** ingliz tili viktorinasining mintaqaviy saralash bosqichi o'tkazildi.

Bellashuv Milliy gvardiya Qorqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasining "**Jayxun**" hamda Milliy gvardiya Xorazm viloyati bo'yicha boshqarmasining "**Everest**" jamoalari o'rtasida bo'lib o'tib, 3 ta shart bo'yicha o'zaro g'oliblik uchun kuch sinashishdi. Mazkur viktorinada **Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi H.Rahimova** hamda **Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti "Tarix" kafedrasida o'qituvchisi U.Babayazov** hakam sifatida ishtirok etdi.



**08.01.2025**

Bugun, 8-yanvar kuni **Britaniya Kengashining “Accelerating English Language Learning in Central Asia (AELLCA)”** – Markaziy Osiyoda ingliz tilini o‘qitishni rivojlantirish loyihasi doirasida **Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakultetining “Ingliz tili va adabiyoti”** kafedrasidan **Buyuk Britaniyaning Ulster universiteti** hamda **Qozog‘iston Respublikasining A.Baytursunov nomidagi Kostanay davlat universiteti** bilan hamkorlikda ingliz tili o‘qituvchilarining malakasini oshirishga qaratilgan vebinari bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv ingliz tilini o‘qitishning yangi usullari va metodlari, shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish masalalariga bag‘ishlanib, unda viloyatimizning ingliz tili o‘qituvchilari ham faol ishtirok etdilar. Vebinarda o‘qituvchilar o‘zaro tajribalar almashishdi. Shuningdek, ingliz tilini o‘rgatish samarasini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni o‘rganishga imkoniyat yaratildi.



**10.01.2025**

***Urganch davlat universitetining Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida Buyuk Britaniyaning Linkoln universiteti va Ulster universiteti, Qozog‘iston Respublikasining A.Baytursunov nomidagi Kostanay davlat universiteti, L.N.Gumilyov nomidagi Evrosiyo milliy universiteti va Baishev universitetlari bilan hamkorlikda “Accelerating English Language Learning in Central Asia (AELLCA)” – Markaziy Osiyoda ingliz tilini o‘qitishni rivojlantirish loyihasini amalga oshirmoqda. Ushbu hamkorlik nafaqat ta’lim sohasida, balki ilmiy-tadqiqot ishlari va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha ham bir qator tashabbuslarni o‘z ichiga oladi.***

Joriy yilning 9-yanvar kuni ushbu hamkorlik doirasida Linkoln universiteti professori Dr. Chokri Ben Rauf Chezal tomonidan “Rethinking English Language Courses - Modules Curriculum Development Workshop” mavzusida vebinar bo‘lib o‘tdi. Ushbu vebinar Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasining professor-o‘qituvchilari hamda magistr talabalari tomonidan ham katta qiziqish bilan kuzatildi.

*Qatnashuvchilar tomonidan ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini oshirish va ingliz tilini o‘qitishning samaradorligini yaxshilashga qaratilgan masalalar muhokama qilindi.*



*10.01.2025*

*Texnikumlarda o'quv kurslari tashkil etilmoqda*

**Urganch davlat universiteti qoshidagi Qo'shko'pir tumani 1-son politexnikumida** ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning ingliz tili bo'yicha og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida yangidan yillik o'quv kurslari tashkil etildi.

Bu kurslar universitetning **Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedras**i tomonidan olib borilmoqda. O'quvchilarni ingliz tilida erkin muloqot qilishga o'rgatish, ularning til ko'nikmalarini mustahkamlash va ish beruvchilar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan kurslarda **kafedra o'qituvchisi Z.Normetova** o'z bilimlarini ulashmoqda.



**11.01.2025**

***Xorijiy filologiya fakultetida Koreys madaniyatiga bag'ishlangan loyiha ishlari taqdimoti tashkil etildi***

Bugun, 11-yanvar kuni **UrDU Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida Filologiya va tillarni o'qitish: koreys tili ta'lim yo'nalishi Mamlakatshunoslik fani o'qituvchisi Sanobar Raxmanova** rahbarligida **2301-guruh talabalari** tomonidan tashkil etilgan loyiha ishlari taqdimoti bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbirda talabalar 1-3 semestr davomida Koreyaning madaniyati, tarixi, geografiyasi, iqtisodiyoti va tili bo'yicha o'rganilgan bilim va ko'nikmalarini namoyish etdilar. Taqdimotlarda Koreyaning boy tarixi, an'anaviy madaniy qadriyatlari, zamonaviy iqtisodiy yutuqlari va tilining milliy o'ziga xosligi kabi mavzular qamrab olindi.

*Tadbir professor-o'qituvchilar va talabalar tomonidan katta qiziqish va e'tibor bilan kuzatildi va talabalarning sa'y-harakatlari yuqori baholandi. Bu tadbir o'quv jarayoniga yanada qiziqish uyg'otib, talabalarni ilmiy izlanishlarini davom ettirishga ilhomlantirishga xizmat qiladi.*



**12.01.2025**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Britaniya Kengashi tomonidan “Ingliz tili o‘qituvchilarining uzluksiz malakasini oshirish tamoyillari” bo‘yicha intensiv trening bo‘lib o‘tdi

2025-yil 9-yanvardan 11-yanvargacha O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Britaniya Kengashi tomonidan tashkil etilgan **“Ingliz tili o‘qituvchilarining uzluksiz malakasini oshirish tamoyillari” (Accelerating English Language Learning in Central Asia)** mavzusida intensiv trening o‘tkazildi. Treningda **Urganch davlat universiteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasini mudiri R.Abidova, kafedra o‘qituvchilari F.Masharipova va U.Axmedovalar** ishtirok etishdi. Trening ingliz tili o‘qituvchilarining malakasini oshirishga qaratilgan bo‘lib, 160 nafar o‘qituvchi loyiha doirasida o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Dastur doirasida xorijiy mutaxassislar **Thom Kiddle, Emma-Jayne Robinson, Lisa Mann, Jamilya Gulyamova va Saida Irgashevalar** o‘z mahoratlari va tajribalarini ishtirokchilar bilan o‘rtoqlashishdi. Bu loyiha O‘zbekistonda ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi.



**13.01.2025**

Bugun, 13-yanvar kuni Urganch davlat universiteti **Xorijiy filologiya fakulteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasini o'qituvchilari F.Masharipova hamda Z.Pulatova** boshchiligida talabalar turar joylarida yashovchi yoshlar bilan **"Axborot xavfsizligi"** mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

*Uchrashuv davomida talaba-yoshlarga axborot xavfsizligining ahamiyati, to'g'ri ma'lumotlarni tanlash, undagi asosiy muammolar va disinformatsiya haqida ma'lumot berilib, talabalarning ham bu boradagi fikr-mulohazalari tinglandi.*



20.01.2025

**Buyuk Britaniyaning Ulster universiteti hamda Qozog‘iston Respublikasining A.Baytursunov nomidagi Kostanay davlat universiteti vakillari UrDUda seminar-treninglar tashkil etish uchun tashrif buyurishdi**

bugun **Buyuk Britaniyaning Ulster universiteti vakillari** hamda **Qozog‘iston Respublikasining A.Baytursunov nomidagi Kostanay davlat universiteti vakillari** Urganch davlat universitetida 21-22-23-yanvar kunlari **Xorijiy filologiya** fakulteti tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan Britaniya Kengashi tashkilotining "**Accelerating English Language Learning in Central Asia (AELLCA) -Markaziy Osiyoda ingliz tilini o‘qitishni rivojlantirish**" loyihasi seminar-treninglarini tashkil etish maqsadida oliygohga tashrif buyurishdi.

Tashrif avvalida mehmonlar bilan universitet rahbariyati uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Xususan, uchrashuvda **rektor v.v.b S.Xodjaniyazov, Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektori G‘.O‘razboyev, Xorijiy filologiya fakulteti dekani Z.Jumaniyazov, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri R.Abidova** hamda **Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i E.Yo‘ldashovlar** ishtirok etishdi. *Hamkorlar bilan kelgusida qo‘shma ta‘lim va "Franchayzing dasturlari" ni tashkil etish, ilmiy hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish va xalqaro loyihalarda birgalikda ishtirok etishga kelishib olindi.*



21.01.2025

Bugun 21-23 yanvar kunlariga mo'ljallangan, ayni kunlarda universitetimizda mehmon bo'lib turgan **Buyuk Britaniyaning Ulster universiteti** hamda **Qozog'iston Respublikasining A.Baytursunov nomidagi Kostanay davlat universiteti** professorlari ishtirokida "**Accelerating English Language Learning in Central Asia (AELLCA) -Markaziy Osiyoda ingliz tilini o'qitishni rivojlantirish**" loyihasi doirasidagi seminarlar boshlandi.

Dastlab ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda **rektor v.v.b S.Xodjaniyazov** hamda **Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori G'.O'razboyevlar** ishtirok etishdi. **Rektor v.v.b S.Xodjaniyazov** seminarni ochib berib, bu kabi tadbirlar nafaqat til o'rganishni rivojlantiradi, balki xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlashga ham xizmat qilishini ta'kidladi va seminar ishiga muvaffaqiyat tiladi.

*Ushbu seminar Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida tashabbusi bilan tashkil etildi va unda kafedraning professor-o'qituvchilari, ingliz tilini chuqurroq o'rganishga qiziqqan talabalar qatnashmoqda.*



22.01.2025

### **Xorijiy filologiya fakultetida "Portfolio" himoyasi bo'lib o'tdi**

Bugun, 22-yanvar kuni **Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi S.Raxmanova** tomonidan fakultet talaba-yoshlari ishtirokida **"Test va baholash"** fanidan ingliz tilini o'qitish va baholash sifatini takomillashtirish bo'yicha **"Portfolio"** himoyasi o'tkazildi.

*Ushbu portfolio himoyasida "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasida dotsenti J.Ermetova, kafedra katta o'qituvchisi S.Atadjanova va Z.Po'latovalar ishtirok etib, talabalarning 7-semestrda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari asosida tayyorlangan taqdimotlarini katta qiziqish va e'tibor bilan tinglashdi hamda ularning sa'y-harakatlarini yuqori baholashdi.*



23.01.2025

*Qozog‘iston Respublikasining A.Baytursunov nomidagi Kostanay davlat universiteti bilan shartnoma imzolandi*

**Buyuk Britaniyaning Ulster universiteti hamda Qozog‘iston Respublikasining A.Baytursunov nomidagi Kostanay davlat universiteti professorlari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida seminar-treninglar o‘tkazish maqsadida mehmon bo‘lib turibdi.**

Tashrif asnosida **Qozog‘iston Respublikasining A.Baytursunov nomidagi Kostanay davlat universiteti professorlari Yelena Kandalina, Regina Akhmetkaliyeva hamda Xorijiy filologiya fakulteti dekani Z.Jumaniyozov, dekan o‘rinbosari J.Kushmanov, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri R.Abidovalarning rasmiy uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.**

*Uchrashuvda universitetlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish borasida muzokaralar olib borilib, fakultetlar va kafedralar o‘rtasida hamkorlikka qaratilgan shartnomani imzolashga muvofiq bo‘lishdi. Shartnoma ikki tomon o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish, talabalar almashinuvi hamda xalqaro seminar va konferensiyalar tashkil etishni ko‘zda tutadi.*



29.01.2025

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida ilmiy-uslubiy seminarlar tizimli ravishda tashkil etilmoqda.** Jumladan, bugun, 29-yanvar kuni **Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti F.Masharipova** tomonidan ilmiy-uslubiy seminar o'tkazilib, unda fakultet professor-o'qituvchilari hamda doktorantlar ishtirok etishdi. Seminarda samarali dars rejasini tuzish orqali ingliz tilini o'rgatishda talabalarning individualligini takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalar bayon qilinib, dars rejasini mukammal qilishda qanday nazariy va amaliy tajribalarni qo'llashning kreativ usullari tinglovchilarga tavsiya qilindi. *Ilmiy-uslubiy seminardan asosiy maqsad o'qituvchilarga o'z darslarini yanada qiziqarli tashkil etishga va mustaqil ishlash qobiliyatini takomillashtirishga yordam berishdan iborat.*



31.01.2025

***Koreys tili fan olimpiadasi g'oliblari qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi***

Bugun, 31-yanvar kuni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti **Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedras**i dotsenti, f.f.n. J.Ermetova rahbarligida faoliyat olib borayotgan "Koreyashunoslik va Koreys tili ta'limi" loyihasi tashabbusi bilan o'tkazilgan "**Koreys tili**" fan olimpiadasi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Olimpiada natijalariga ko'ra, g'olib bo'lgan 18 nafar talaba **Xorijiy filologiya fakulteti dekani Z.Jumaniyozov** tomonidan taqdirlanib, ajoyib imkoniyatlarni qo'lga kiritdi:

- 🏆 **1- o'rinni** egallagan 1 nafar talaba Koreyaga yo'llanma;
- 🥈 **2- o'rinni** egallagan 2-nafar talabaga 100% kontrakt to'lovi;
- 🥉 **3- o'rinni** egallagan 2-nafar talabaga 75% kontrakt to'lovi;
- 4-8 o'rinlarni** egallagan 13-nafar talabaga 500ming so'mdan pul mukofotlari topshirildi.



05.02.2025

### “Koreya madaniyati” haftaligi doirasida ko‘rgazma tashkil etildi

Bugun, 5-fevral kuni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti **Xorijiy filologiya fakultetida** "Koreya madaniyati" haftaligi doirasida “Ingliz tili va adabiyoti” kafedrası S.Raxmonova hamda Filologiya va tillarni o‘qitish: Koreys tili ta’lim yo‘nalishi 2301, 2402-guruh talabalari tomonidan **Koreya tarixi va madaniyati bo‘yicha ko‘rgazma** tashkil etildi.

*Ko‘rgazma davomida Koreyadan tasrif buyurgan, o‘qituvchilar, talabalar va barcha istirokchilar Choson davridan to zamonaviy Koreyaga qadar bo‘lgan tarixiy jarayonlar, koreys xalqining milliy liboslari, san’ati va hunarmandchiligi hamda Koreyaning ilmiy va texnologik yutuqlari bilan yaqindan tanishdilar.*



25.02.2025

***UrDU o'qituvchilari PRESSETT treningda ishtirok etishmoqda***

*24-25 fevral kunlari o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonini mustahkamlash, reflektiv amaliyotlarni chuqur o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish maqsadida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida PRESSETT trening bo'lib o'tmoqda.*

Mazkur treningda **Respublika OTMLarining 160 dan ortiq professor-o'qituvchilari** qatorida **Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri Rohatoy Abidova** hamda kafedra o'qituvchilari **Feruza Masharipova va O'g'iljon Ahmedovalar** ham ishtirok etmoqda.

*Trening davomida CPD va reflektiv amaliyotlar tushunchasi, Metodologik dars namunasi va tahlili, til o'rganish darslarida refleksiya hamda o'qitish amaliyotida refleksiya va rejalashtirish singari mavzular muhokama qilinmoqda.*



**04.03.2025**

Bugun **Xorijiy filologiya fakultetida Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri R.Abidova, fakultet Xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi Z.Po'latova** hamda tyutorlar ishtirokida **"Ayol borki, olam munavvar!"** mavzusida davra suhbatini tashkil etildi. Uchrashuvda bugungi kunda faol, o'z kasbinining ustasi, ijodkor ayol va qizlarning jamiyatimizdagi o'rni tobora mustahkamlanib borayotganligi, ayollarning nozik didi, har ishga qunt bilan yondashuvi, tabiatan saranjom-sarishtaligi, ularning barcha sohalarda samarali mehnat qilayotganlari to'g'risida so'z yuritildi. *Shuningdek, xotin-qizlarimizning nafaqat kundalik turmushda, balki davlat miqyosidagi eng muhim masalalarni hal qilishdagi o'rni va roli tobora ortib borayotgani alohida qayd etildi.*



11.03.2025

***Oliyohning bir guruh professor-o'qituvchilari Qozog'istonning Ostona shahrida bo'lib o'tayotgan xalqaro konferensiyada ishtirok etmoqda***

Joriy yilning 10-13 mart kunlari **Qozog'istonning Ostona shahri Yevrosiyo milliy universitetida** AELLCA loyihasi doirasida *“Designing and Implementing responsive interventions to sustain the career progression of current and future teachers of English language and in Kazakhstan and Uzbekistan: the case studies of PRESETT at L.N.Gumilyov Eurasian National University Kazakhstan, Baishev university Kazakhstan and Urgench State University”* mavzusidagi **xalqaro konferensiya** bo'lib o'tmoqda.

Unda **Abu Rayhon Beruniy** nomidagi **Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti dekani Z.Jumaniyozov**, **dekan o'rinbosari J.Kushmanov**, **Ingliz tili va adabiyoti kafedrası mudiri R.Abidova** hamda **kafedra o'qituvchilari U.Axmedova va Sh.Zaripovalar** ishtirok etmoqda.

*Dastur doirasida Z.Jumaniyozov delegatsiya rahbari sifatida ochilish marosimida universitet nomidan o'z nutqi bilan chiqish qildi hamda Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida loyiha yuzasidan 5 oy davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida so'z yuritdi. Shuningdek, universitet o'qituvchilari ham o'z nutqi bilan chiqish qilishdi.*



**10.04.2025**

**Ingliz tili va adabiyoti kafedrası jamoasi Turkiyaning Canakkale universitetida bo‘lishdi**

Bugun, 10-aprel kuni **Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası mudiri R.Abidova** boshchiligida bir guruh o‘qituvchilar va talabalar **Turkiyaning Canakkale Onsekiz Mart** universitetiga tashrif buyurishdi.

Tashrif davomida mehmonlar oliygoh faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Shuningdek, **oliygoh professori Kursat Cesurning "Teaching English to Young Learners"** (Kichik yoshdagilarga ingliz tili o‘qitish) hamda **professor Mustafa Tekinning "Listening and Speaking"** (Tinglash va gapirish) mavzusidagi dars mashg‘ulotlarida faol ishtirok etdilar.

*Mazkur tashrif xalqaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, o‘zaro tajriba almashish hamda talabalarning ingliz tilini o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.*



14.04.2025

*UrDU professor-o'qituvchilarining Turkiyadagi rasmiy tashrifi doirasida hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi*

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti San'at kafedrasini vakillari hamda Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri R.Abidova** boshchiligidagi delegatsiya a'zolarining **Turkiyaning Canakkale Onsekiz Mart** universitetiga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

Bugun, 14-aprel kuni tashrif doirasida delegatsiya a'zolari **mazkur universitet rektori, professor Ramazan Cüneyt Erenođlu** hamda **Xalqaro aloqalar bo'limi rahbari Dr. Ali Emrah Tokathođlu** bilan uchrashdilar. Uchrashuvda hamkorlikni yanada rivojlantirish, qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, akademik almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama etishdi.




06.05.2025

*Xalqaro talabalar konferensiyasi bo'lib o'tdi .*

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti** Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida tomonidan **Qozog'istonning Axmet Baytursinuliy nomidagi Kustanay mintaqaviy universiteti** bilan hamkorlikda Amaliy tilshunoslik bo'yicha **“Research. Opportunity. Language. Experiment (ROLE)” (Tadqiqot. Imkoniyat. Til. Eksperiment)** xalqaro talabalar konferensiyasi onlayn formatda tashkil etildi.

Mazkur konferensiya ingliz tilini o'rganish, ilmiy izlanish olib borish hamda talabalar o'rtasida xalqaro akademik hamkorlikni mustahkamlash maqsadida o'tkazildi. Tadbir davomida O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa davlatlardan **60 dan ortiq talabalar, magistrantlar va doktorantlar** o'z ilmiy ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

*Konferensiya o'z ishini to'rt sho'badan iborat seksiyalarda davom ettirdi. Har bir seksiyada talabalar zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlaridagi tadqiqotlarini taqdim etdilar, fikr almashdilar va akademik muloqot orqali tajriba orttirdilar.*



07.05.2025

***Xorijiy filologiya fakulteti o'qituvchilari tomonidan texnikumlarda mahorat darslari olib borilmoqda***

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti** Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida tashabbusi bilan kafedra o'qituvchilari tomonidan **Qo'shko'pir tumani 1-son** hamda **Yangiariq tumani 2-son texnikumlarida** mahorat darslari olib borilmoqda. Mahorat darslari kafedra o'qituvchilari Z.Pulatova, F.Karimova, O.Ruzmetova hamda I. Annaxasanovalar tomonidan "Everyday English for Communication", "English Through Songs and Movies", "Vocabulary Games and Techniques", "Business English Basics" kabi mavzularda olib borilib, bu kabi loyihalar politexnikum o'qituvchilari uchun nazariy va amaliy jihatdan foydali bo'ldi. Ushbu tashabbus hududiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash, o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda ingliz tilini o'qitishda ilg'or tajribalarni tatbiq etishga qaratilgan. Tadbir ishtirokchilari tomonidan mahorat darslari yuqori baholanib, kelgusida bunday hamkorlikdagi loyihalarni davom ettirish bo'yicha takliflar bildirildi.



16.05.2025

### **Koreyalik mehmonlar uchun madaniy dastur namoyish etildi**

Bugun Urganch davlat universitetiga tashrif buyurgan **Janubiy Koreya Respublikasining O'zbekistondagi elchisi, janob Von Doyeon** boshchiligidagi delegatsiya sharafiga madaniy-ma'rifiy dastur tashkil etildi. Tadbir avvalida **UrDU rektori v.v.b. S.Xodjaniyozov** hamda **janob elchi Von Doyeon** so'zga chiqib, O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi do'stona aloqalar, ta'lim va madaniyat sohalaridagi hamkorlik aloqalarining rivojlanib borayotgani, UrDuning Koreya universitetlari bilan aloqalarini alohida ta'kidladilar.

So'ngra **Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti J. Ermetova** Janubiy Koreyaning Koreyashunoslik bo'yicha **SEED dasturi doirasidagi "Koreyashunoslik va koreys tili ta'limi" granti** doirasida olib borilayotgan ilmiy-amaliy faoliyat bilan tanishtirdi.

Tadbirning madaniy qismida esa **Filologiya va tillarni o'qitish: koreys tili** yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar tomonidan ikki xalq urf-odatları, an'anaları va madaniyatini aks ettiruvchi kuy-qo'shiqlar, raqslar hamda badiiy chiqishlar namoyish etildi. Talabalar koreys va o'zbek madaniyati uyg'unligini ifodalovchi sahna ko'rinishlari orqali mehmonlarda katta taassurot qoldirishdi. *Mazkur tadbir O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim tashabbus sifatida e'tirof etildi.*



04.06.2025

***Ingliz tili o'qituvchilarining malakasi oshirildi.***

Bugun, 4-iyun kuni **Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti** professor-o'qituvchilari tashabbusi bilan Xiva shahridagi "Farovon" mehmonxonasida Xorazm viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari ingliz tili o'qituvchilari uchun ***“Engage, Explore, Empower: Professional Development for 21st Century English Teachers”*** mavzusida seminar-trening tashkil etildi.

Tadbirning asosiy maqsadi ingliz tili o'qituvchilarning interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlar bilan tanishtirish, ularni darslarda faollik, tanqidiy fikrlash va hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodika va strategiyalarni tadbiq qilishdan iborat bo'lib, unda **40 nafardan ortiq ingliz tili o'qituvchilari** ishtirok etdi.

Trening davomida o'qituvchilar an'anaviy – o'qituvchi markazli yondashuvlardan voz kechib, **zamonaviy – talabani faol ishtirokchi sifatida ko'radigan metodlarga** o'tish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda qatnashdilar. Ayniqsa, **“Four Corners”, “Jigsaw Reading”, “1,2,3, Uzbekistan”** kabi metodlar ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

*Trening mashg'ulotlarini tajribali trenerlar **Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, dotsent Rohatoy Abidova** va **kafedra dotsenti Feruza Masharipova** olib bordilar. Seminar treningda **Wiley Roberts, Nargiza Hamraeyva** va **Dilfuza Kuchkarovalar** guruhlar ishini samarali tashkil etishga ko'maklashishdi.*



05.06.2025

Bugun **Urganch davlat universiteti rektori v.v.b Sardor Xodjaniyazov**, **Xorijiy filologiya fakulteti dekani Zohid Jumaniyozov** hamda **Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti Feruza Masharipova** Fulbright dasturi doirasida universitetda faoliyat olib borgan **ETA ingliz tili assistent o'qituvchisi Wiley Roberts** bilan uchrashuv o'tkazishdi.

Uchrashuv davomida **S.Xodjaniyazov** Wiley Robertsga 2024–2025 o'quv yili davomida Urganch davlat universiteti talabalariga ingliz tilidan samarali dars bergani va talabalarning til o'rganishga bo'lgan istagini yanada oshirishga qo'shgan hissasi uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

O'z navbatida **Wiley Roberts** ham ushbu universitetda dars berganidan mamnunligini bildirib, talabalar bilan ishlashdan katta zavq olganini ta'kidladi. Uchrashuv yakunida Wiley Robertsga universitet tomonidan **minnatdorchilik sertifikatini** topshirildi.



## **Urganch davlat universiteti jamoasi Xitoyning Gansu qishloq xo'jaligi universitetida bo'lishmoqda**

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri R.Abidova** boshchiligidagi bir guruh universitet professor-o'qituvchilari hamda iqtidorli talaba-yoshlaridan iborat bo'lgan delegatsiya a'zolari **Xitoyning Gansu qishloq xo'jaligi universitetiga** tashrif buyurishdi.

Tashrif doirasida mehmonlarni **universitet vitse-prezidenti professor Si Huaijun** rasmiy qabul qildi. Uchrashuvda **Urganch davlat universiteti vakillari** bilan birga **Gumanitar fanlar kolleji dekani Zhao Liping, Xalqaro ta'lim kolleji dekan o'rinbosari Ma Xiaojie, Xalqaro aloqalar bo'limi xodimi Xu xonim** ishtirok etib, ikki oliygo'ha o'rtasida hamkorlikni yanada rivojlantirish, qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, akademik almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish hamda xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama etishdi.

Ushbu tashrifdan asosiy maqsad mazkur oliygo'hada **talabalar o'quv va amaliyot kurslarida ishtirok etish, professor-o'qituvchilar esa malaka oshirish hamda tajriba almashishdan** iboratdir. Uchrashuvdan so'ng, UrDU delegatsiyasi Gansu qishloq xo'jaligi universitetining muzeyi va kutubxonasi bilan yaqindan tanishdilar. UrDU delegatsiyasining ushbu universitetga tashrifi davom etadi.



09.06.2025

**UrDU jamoasi Gansu universitetining madaniy va ilmiy tadbirlarida ishtirok etdi**

Ayni paytda **Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini** mudiri **R.Abidova boshchiligida jamoasi** hamda universitetning bir guruh iqtidorli talaba-yoshlari **bo'lim boshlig'i S.Allanazarova** bilan birgalikda **Xitoyning Gansu qishloq xo'jaligi universitetida** o'quv va amaliyot kurslarida ishtirok etish, malaka oshirish va tajriba almashish maqsadida bo'lib turibdi.

Tashrif doirasida jamoa a'zolari innovatsion dars muhitlari bilan yaqindan tanishish maqsadida ingliz tili bo'yicha **VR (virtual reallik) vaziyatli mashg'ulot xonasi** hamda **Xitoy xalqaro ta'lim virtual simulyatsiya laboratoriyasiga** tashrif buyurishdi.

Shuningdek, mehmonlar Gansu universiteti tomonidan tashkillashtirilgan **Baduanjin (Qigong)** an'anaviy xitoycha sog'lomlashtirish mashqlari va amaliy mashg'ulotlarida ishtirok etdilar. Bu jismoniy mashqlar nafaqat sog'liqni mustahkamlash, balki ongni tinchlantirish va ichki energiyani uyg'otishda muhim ahamiyatga ega.

Kunning ikkinchi yarmida **UrDU delegatsiyasi Dunxuan san'at muzeyiga** tashrif buyurib, Xitoy madaniy merosi, tarixiy san'at asarlari hamda qadimiy ipak yo'li sivilizatsiyasiga oid eksponatlar bilan yaqindan tanishdi.



*11.06.2025*

*UrDU magistranti “Challenge Cup – 2025” ingliz tili fan olimpiadasida ikki yo'nalish bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritdi!*

Joriy yilning 14-17-may kunlari **Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti (UNECON)** tomonidan **“Challenge Cup – 2025”** 16-Butunrossiya xalqaro ishtirokidagi ingliz tili fan olimpiadasi onlayn formatda o'tkazildi. Musobaqada **Rossiya, Belarus, Qozog'iston va O'zbekistonning** yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan 328 nafar bakalavriat va magistratura talabalari **7 ta yo'nalish** bo'yicha faol ishtirok etishdi hamda bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazishdi. Xususan, **Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistranti Asaloy Azadova** ingliz tili bo'yicha chuqur bilimlari va tarjima mahoratini namoyon etib, ikki yo'nalish: kasbiy tarjima ko'nikmalari gazeta maqolasini inglizcha-ruscha va ruscha-inglizcha tarjima qilish hamda badiiy tarjima ko'nikmalari bo'yicha **faxrli 1-o'rinni** qo'lga kiritdi. Talabamiz **Asaloy Azadovani** va uning **ilmiy rahbari, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri R.Abidovani** ushbu ulkan yutuq bilan samimiy muborakbod etamiz! Talabamizga xalqaro maydonlarda universitetimiz sharafini yanada yuksak darajada himoya qilishda, shuningdek, kelgusi ilmiy faoliyatida ulkan zafarlar va akademik muvaffaqiyatlar tilaymiz!

**11.06.2025**

**UrDU jamoasi Gansu universitetining ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida ishtirok etmoqda.** Ayni kunlarda **Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Xorijiy filologiya fakulteti jamoasi Xitoyning Gansu qishloq xo'jaligi universitetida** malaka oshirish va tajriba almashish maqsadida bo'lib turibdi.

Bugun **Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri R. Abidova** mazkur universitetning **Gumanitar fanlar fakulteti** Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini professor-o'qituvchilari, magistrant hamda talabalariga ingliz tili o'qitish metodikasi va madaniyatlararo muloqot fanlaridan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tkazdi. Mashg'ulot davomida **R. Abidovani**ning **"Fostering active language use through english communication tasks"** mavzusida ma'ruzasi taqdim qilindi. Ushbu ma'ruza ishtirokchilarda ingliz tili o'qitishning zamonaviy usullari va madaniyatlararo muloqotning ahamiyati haqida yangi bilimlar hosil qilishga yordam berdi.



12.06.2025

***Gansu qishloq xo'jalik universitetidagi tashrif yakunlariga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi***

Joriy yilning 13-iyun kuni **Xitoyning Gansu qishloq xo'jaligi universitetida Urganch davlat universitetining** bir guruh professor-o'qituvchilari va talabalari ishtirokida tashkil etilgan tashrif dasturining yakuniga bag'ishlangan tantanali yopilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbir avvalida mazkur oliygohning **vitse-prezidenti Si Huaijun** so'zga chiqib, O'zbekiston va Xitoy oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik tobora mustahkamlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. U ikki universitet o'rtasidagi ilmiy-akademik va madaniy aloqalarning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratib, kelgusida bu hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish istagini bildirdi. Urganch davlat universiteti nomidan **Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri R.Abidova** so'zga chiqib, Gansu qishloq xo'jalik universiteti rahbariyatiga samimiy mehmondo'stlik, puxta tashkillashtirilgan tashrif dasturi va madaniy-ma'rifiy tadbirlar uchun chuqur minnatdorchilik izhor etdi.



**19.06.2025**

**“Pedagogning kasbiy mahoratini shakllantirish” mavzusida master-klass tashkil etildi.**

Bugun **Xorijiy filologiya fakulteti** Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan “Dolzarb 90 kun” loyihasi hamda “Yoshlar bandligi” oyligi doirasida 4-kurs bitiruvchilari uchun **“Pedagogning kasbiy mahoratini shakllantirish”** mavzusida master-klass o‘tkazildi.

*Master-klass davomida kafedra o‘qituvchilari tomonidan zamonaviy dars metodikasi, interaktiv o‘quv usullari, o‘qituvchining kommunikativ mahorati singari masalalar yuzasidan ma’lumotlar taqdim etildi.*



15.08.2025

***“Dolzarb 90 kun” doirasida talabalarning ijodiy fikrlashi va nutq ko‘nikmalari rivojlantirilmoqda.***

**“Dolzarb 90 kun”** tashabbusi doirasida **Ingliz tili va adabiyoti kafedrası** tomonidan talabalarning ingliz tilida fikrlash qobiliyatini oshirishga qaratilgan tadbir tashkil etildi. Tadbir davomida talabalar birgalikda ingliz tilidagi hikoyani o‘qib, uning mazmuni, qahramonlari va asosiy g‘oyalari ustida fikr almashdilar.

Talabalar **“Storytelling” faoliyati** orqali o‘z ijodiy fikrlash, og‘zaki nutq va mantiqiy izoh berish ko‘nikmalarini namoyon etdilar. Ushbu mashg‘ulot nafaqat o‘quvchilarning o‘qish malakasini rivojlantirdi, balki o‘z fikrini ravon, aniq va ishonchli tarzda ifoda etishga xizmat qildi.

Tadbir mashg‘ulotlarini **Ingliz tili va adabiyoti kafedrası mudiri R.Abidova** boshchiligida **F.Masharipova, I.Annahasanova, Z.Pulatova, B.Sapayeva** hamda **S.Rahmanova** kabi bir guruh professor-o‘qituvchilar olib bordi. *Bunday tashabbuslar talabalarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda chet tilini chuqur o‘zlashtirishlariga xizmat qilmoqda.*



03.09.2025

### **Xalqaro grant asosida UrDU talabalariga yangi adabiyotlar taqdim etildi.**

**Urganch davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedras**i dotsenti **Feruza Masharipova** AQShning Toshkentdagi Elchixonasi tomonidan e'lon qilingan **"Small Property" grant dasturining S-UZ800-25-PG-0031 raqamli** loyihasida ishtirok etib, **xalqaro grant sohibasi** bo'ldi. Ushbu mablag' ingliz tilini samarali o'qitish uchun zamonaviy o'quv qo'llanmalar va adabiyotlarni taqdim etishga yo'naltirildi. Natijada talabalar xalqaro miqyosda mashhur bo'lgan bir qator badiiy va ilmiy manbalardan foydalanish imkoniga ega bo'ldilar. Xususan, "Harry Potter" kitoblar to'plami, "The Chronicles of Narnia" to'plami, Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics (Jack Richards va Richard Schmidt), Cambridge English Pronouncing Dictionary (Daniel Jones), Dictionary of American Idioms, shuningdek, "O'Henry Prize Best Short Stories" kabi asarlar shular jumlasidandir. *Ushbu adabiyotlar yangi o'quv yilida talabalar uchun mustahkam bilim manbai bo'lib xizmat qiladi. Ularda ingliz tilida mustaqil fikrlashni yanada kuchaytirish, ingliz tilini chuqurroq o'rganish va kreativ yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi.*



09.11.2025

**AQShning Fulbright ETA ingliz tilini o'qitish dasturi o'qituvchisi UrDU dars mashg'ulotlarini olib boradi.**

2025-yil 11-sentabridan 2026-yil 30-iyuniga qadar **AQSh Davlat departamentining Ta'lim va madaniyat masalalari byurosi** hamda **Urganch davlat universiteti hamkorligida Fulbright ETA ingliz tilini o'qitish dasturi o'qituvchisi Jack Evans** oliygohda talaba-yoshlarga ingliz tilini yanada chuqurroq o'rgatishi uchun universitetda faoliyat olib borishi rejalashtirilgan.

Shu munosabat bilan, bugun dastur doirasida **Toshkentdagi AQSh elchixonasining Xalq diplomatiyasi bo'yicha mutaxassisi Utkirbek Tadjimov**, "**Fulbright ETA - UrSU ingliz tilini o'qitish**" dasturi assistenti **Jack Evans** Urganch davlat universitetiga tashrif buyurishdi. Mehmonlarni universitet ma'muriyati iliq qarshi olishdi. Dastlab dastur ishtirokchilari bilan **Xalqaro hamkorlik aloqalari bo'yicha prorektor G'.O'razboyev**, **Xorijiy filologiya fakulteti dekani Z.Jumaniyozov**, **Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri R.Abidova** va **kafedra dotsenti F.Masharipovalarning** rasmiy uchrashuvi bo'lib o'tdi.

*Shundan so'ng, Xorijiy filologiya fakultetida Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchilari bilan uchrashuv o'tkazilib, amalga oshirilayotgan hamkorlikdan tomonlarning manmunligi hamda dasturdan ko'zlangan maqsad va vazifalar yuzasidan suhbat olib borildi.*



09.13.2025

***Urganch davlat universitetida Xorijiy filologiya fakulteti 1-kurs talabalari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi.***

Bugun, 13-sentabr kuni universitet **Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi N.Atadjanova** va **fakultetning xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi Z.Pulatova Xorijiy filologiya fakulteti talabalari** bilan universitetda talaba-qizlar uchun yaratilgan sharoitlar to'g'risida suhbat olib borishdi. Uchrashuvda ta'lim jarayoni, xotin-qizlar huquqlari hamda universitetdagi ijtimoiy faoliyat haqida atroflicha so'z yuritildi.

Shuningdek, **Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri R.Abidova** talabalar bilan uchrashib, universitet faoliyati va o'quv jarayoni haqida batafsil ma'lumot berdi. Mazkur uchrashuvlar talabalar bilan samarali muloqot va ularning universitet hayotiga faol jalb etilishiga xizmat qilmoqda.



23.09.2025

**AQSHlik professor UrDUda dars mashg'ulotlari olib boradi.**

Bugun, 2025-yilning 23-sentyabr kuni AQShning Fulbrayt dasturi doirasida Vermont universiteti professori **Oyazabal Omar Adrian** O'zbekistonning ilm-fan markazlaridan biri – Xorazm Ma'mun akademiyasida o'z ilmiy faoliyatini boshlash maqsadida viloyatimizga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida AQSh elchixonasi **Jamoatchilik bilan ishlash bo'limi katta mutaxassisi Saidaxon Musakhanova** hamrohligida **Urganch davlat universitetiga keldi.** Universitetda mehmonlar iliq qarshi olindi.

Shundan so'ng, **oliygo'ha rektori v.v.b. S.Xodjaniyazov** boshchiligida universitet rahbariyati va **Xorijiy filologiya fakulteti professor-o'qituvchilari** ishtirokida mehmonlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Suhbat davomida xalqaro hamkorlik, ilmiy-tadqiqot ishlari va talaba-yoshlar bilan ishlash borasida yangi istiqbollar muhokama qilindi.

Ta'kidlash joizki, **professor Oyazabalning** Xorazmga kelishidagi asosiy maqsad – ilm-fan va ta'lim sohasida chuqur hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. U **22-sentabrdan 30-oktabrgacha** bo'lgan muddat davomida Xorazm Ma'mun akademiyasi laboratoriyasida mahalliy olimlar bilan birgalikda ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Shu bilan birga, **Urganch davlat universitetining Biologiya, Biotexnologiya va Oziq-ovqat xavfsizligi yo'nalishlarida** tahsil olayotgan talabalarga ma'ruzalar o'qib, ularni zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan tanishtiradi.

Ahamiyatlisi, **Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishidagi** iqtidorli talabalarga **professor Oyazabal** ilmiy maqolalar tayyorlash, ularni **Scopus va Web of Science** kabi xalqaro ilmiy bazalarda chop etish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi. Eng iqtidorli talaba va magistrlar esa Xorazm Ma'mun akademiyasining zamonaviy laboratoriyalarida amaliy tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.



**23. 09.2025**

Joriy yilning 29-sentabr kuni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida “**Olima qizlar**” klubi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi **N.Atajanova** so‘zga chiqib, mamlakatimizda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar, universitet talaba-qizlarini ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularni ilm-fan sohasida faol bo‘lishga undash hamda ilmiy izlanishlarda tutgan o‘rni haqidagi ma‘lumot berdi.

Shuningdek, uchrashuvda “Oziq-ovqat texnologiyasi” kafedrasini tayanch doktoranti **M.Sadullayeva** hamda Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini tayanch doktoranti **Ch.Yo‘ldosheva** o‘z taqdimotlari bilan ishtirok etdilar.

Ular ilmiy salohiyatni rivojlantirish, ilmiy jurnallarda maqola chop etish ko‘nikmalarini shakllantirish, xalqaro ilmiy loyihalar va grantlarda ishtirok etish masalalarida talabalarga foydali tavsiyalar berdilar.



03.10.2025

*Universiteti vakillari “Ilm yulduzlari” tanlovining viloyat bosqichida yuqori natijalarni qo‘lga kiritdi )*

Joriy yilning 3-oktabr kuni Urganch davlat pedagogika institutida “Ilm yulduzlari” intellektual ko‘rik-tanlovining viloyat bosqichi bo‘lib o‘tdi. Tanlovning [universitet bosqichida](#) ilmga chanqoq, intiluvchan va mustaqil izlanish olib borayotgan 8 nafar iqtidorli yosh olimlar ishtirok etdi. Ular orasidan saralangan 2 nafar faol ishtirokchi viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Tanlovning viloyat bosqichida **Urganch davlat universiteti** nomidan ishtirok etgan ustoz va izlanuvchilarimiz yuqori natijalarga erishishdi:

**Shahnoza Alimova** – O‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, tanlovda “**Eng zukko va topqir ishtirokchi**” nominatsiyasi g‘olibi bo‘ldi.

**Charos Yuldosheva** – Xorijiy filologiya fakulteti ingliz tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti, “**Eng yaxshi dasturiy ishlanma, texnologik ilova, raqamli media mahsulot sohibasi**” nominatsiyasiga sazovor bo‘ldi.

**Tanlovdan asosiy maqsad** – yurtimizda ayollar uchun yaratilgan teng huquq va imkoniyatlar sharoitida iqtidorli xotin-qizlarning ilm-fan sohasida qanday natijalarga erishayotganini aniqlash, ularni har tomonlama rag‘batlantirish, ilmiy faoliyatlarining uzviylikini ta‘minlash va munosib sharoitlar yaratishdan iborat.



07.10.2025

***Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasidan Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich 2201–2207-guruh talabalari ishtirokida pedagogik amaliyotga bag‘ishlangan konferensiya o‘tkazildi.***

Unda **fakultet dekani Z.Jumaniyozov, kafedra mudiri R.Abidova** hamda **amaliyot rahbarlari** ishtirok etishdi. Talabalarga pedagogik amaliyotning maqsadi, vazifalari, amalga oshirilish jarayoni, kutilayotgan natijalar hamda baholash mezonlari haqida batafsil tushuntirish ishlarini olib bordilar. Pedagogik amaliyot joriy 1-noyabrgacha davom etadi. Tadbir yakunida talabalarga amaliyot davrida mas’uliyat bilan yondashish, o‘quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va o‘qituvchilik malakasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.



20.10.2025

**“How to teach young learners” – ingliz tili o‘qituvchilari uchun foydali seminar**

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakultetida Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi Masharipova Fazilat tomonidan “How to teach young learners” mavzusida uslubiy seminar tashkil etildi.** Seminarda yosh o‘quvchilarga ingliz tilini samarali o‘qitishning zamonaviy metodlari, interaktiv yondashuvlar hamda ijodiy mashg‘ulotlarning ahamiyati haqida so‘z yuritildi. Tadbir davomida amaliy misollar, o‘yinli mashg‘ulotlar va ilg‘or tajribalar asosida darslarni yanada qiziqarli tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Seminar ishtirokchilari uchun mazkur mashg‘ulot ingliz tilini o‘qitish jarayonida innovatsion usullarni qo‘llashda muhim tajriba bo‘ldi.

21.10.2025

**O'zbek tili-milliy g'ururimiz!** Bugun, 21-oktabr sanasida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti **Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini** tomonidan 21-oktabr O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 36 yilligi munosabati bilan **"O'zbek tili – milliy g'ururimiz"** nomli tantanali bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirni **fakultet dekani Z.Jumaniyozov** ochib berib, barcha ishtirokchilarni bayram bilan tabrikladi. U o'z nutqida o'zbek tilining xalqimiz hayotidagi beqiyos o'rni, uning boy tarixiy ildizlari va bugungi kunda davlat siyosatida tutgan yuksak mavqeiga alohida to'xtalib o'tdi. Bayram tadbiri ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Talabalar tomonidan o'zbek tilini ulug'lovchi she'rxonlik, sahna ko'rinishlari va raqs chiqishlari namoyish etildi. Shuningdek, viktorina savollari orqali talabalar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishdi va g'oliblar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.



05.11.2025

*Ingiliz tili va adabiyoti kafedrasidan TTJda uchrashuv tashkil etildi.*

Bugun, 5-noyabr kuni **Urganch davlat universiteti** **Ingiliz tili va adabiyoti kafedrasida** professor-o'qituvchilari Talabalar turar joyida bo'lishdi. U yerda ular talabalarning yashash sharoiti, tozalik, tartib-intizom va umumiy muhit bilan tanishdilar hamda talabalar bilan samimiy suhbat o'tkazishdi. Uchrashuvda **“Atrof-muhitni muhofazasi oyligi”** doirasida **kafedra katta o'qituvchisi R.Urzametov, o'qituvchi F.Karimova** hamda **stajor-o'qituvchi H.Matqurbanova**lar tomonidan atrof-muhitni asrash, tabiatga e'tibor, sog'lom turmush tarzi va ijtimoiy mas'uliyat masalalari haqida fikr yuritildi. *Shuningdek, professor-o'qituvchilar talabalarga oshxona va xonalarni ozoda saqlash, tozalik va gigiyena qoidalariga rioya qilish, jamoaviy yashash madaniyatiga amal qilish bo'yicha foydali tavsiyalar berdilar.*



21.11.2025

## Sun'iy intellektning ta'limdagi o'rniga bag'ishlangan konferensiya o'tkazildi.

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida** Amerika Qo'shma Shtatlarining Xalqaro ta'lim bo'yicha kengashlari (American Councils) tashabbusi bilan sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga ta'siri va undan samarali foydalanish masalalariga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi.

Konferensiyani **Xorijiy filologiya fakulteti dekani Zohid Jumaniyozov** ochib berdi. Unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar hamda magistrantlar ishtirok etdi. Treningda **loyiha tashabbuskori, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti Feruza Masharipova** moderatorlik qildi. **Konferensiyada quyidagi ma'ruzalar taqdim etildi:**

**Jek Evans** (Fulbright ETA stipendiyati sohibi) — “GPA Meets GPT: The Evolution of Education in the AI Era”;

**Ulug'bek Salayev** (Kompyuter fanlari kafedrası o'qituvchisi) — “AI in Research”;

**Sultonmahmud Polvanov** (Raqamli texnologiyalar bo'limi boshlig'i) — “ChatGPT Security Reminders for Users”. Konferensiya davomida sun'iy intellektni ta'lim jarayonida qo'llashning amaliy yondashuvlari, talaba faolligini oshirish, ijodkorlikni rivojlantirish hamda o'qitish jarayonini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari keng yoritildi. Shuningdek, AI vositalaridan mas'uliyatli, etik va akademik halollik tamoyillariga muvofiq foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. *Konferensiya yakunida raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarni kelajak kasblariga tayyorlashda pedagoglarning o'rni va ta'lim siyosatini takomillashtirishning dolzarbligi qayd etildi.*



25.11.2025

*UrDU o'qituvchilari Buyuk Britaniyada malaka oshirishmoqda.*

**Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri R.Abidova hamda kafedraning dotsenti S.Umarova Buyuk Britaniyaning nufuzli Southampton universiteti taklifiga binoan, 20–27 noyabr kunlari Southampton shahrida o'tkazilayotgan Tilni baholash bo'yicha maxsus o'quv kurslarida malaka oshirmoqdalar.**

*Tashrif doirasida 22-noyabr kuni QS xalqaro reytingida 80-o'rinni egallagan Southampton universitetida tashkil etilgan "Language Testing Forum 2025" xalqaro ilmiy anjumanida ham ishtirok etib, o'z ma'ruzalari bilan forum qatnashchilari oldida chiqish qildilar.*

*Mazkur tashrif o'qituvchilarimizning xalqaro tajribasini oshirish, ilmiy hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, zamonaviy til baholashning innovatsion metodlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.*



13.12.2025

*UrDU Xorijiy filologiya fakulteti professor-o'qituvchilari Astanada xalqaro seminar va treninglarda ishtirok etdi.*

Joriy yilning 8–12-dekabr kunlari **Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti professor-o'qituvchilari Qozog'istonning Astana shahrida L.N.Gumilyov nomidagi Yevroosiyo milliy universitetida o'tkazilgan xalqaro seminar va treninglarda ishtirok etdi.** Tadbir **Britaniya Kengashining “Accelerating English Language Learning in Central Asia (AELLCA Phase II)”** dasturi doirasida tashkil etildi. Tashrif davomida **Astanadagi 87-maktab-gimnaziyada** o'qituvchilar uchun maxsus trening o'tkazildi. Mashg'ulotlarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar, kommunikativ metodlar va interfaol texnologiyalar bo'yicha tajriba almashildi. Shuningdek, **Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri R.Abidova** Qozog'iston va Qirg'iziston o'qituvchilari va talabalariga ma'ruzalar o'qib, amaliy treninglar o'tkazdi.

Seminarlarda **PRESETT – ingliz tili o'qituvchilarini dastlabki tayyorlash tizimi metodikasini amaliyotga tadbiq etish masalalari** muhokama qilindi.

*O'tkazilgan uchrashuvlar natijasida Bishkek davlat universiteti va Yevroosiyo milliy universiteti bilan kelajakdagi hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha kelishuvlarga erishildi.*



15. 12.2025

**UrDUda texnikum o‘qituvchilari uchun malaka oshirish seminar-treninglari boshlandi.**

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti** tashabbusi bilan **viloyatimizdagi texnikumlarda faoliyat yuritayotgan chet tili o‘qituvchilarining** kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan seminar-treninglar o‘z ishini boshladi. Mazkur tashabbus ta’lim sifatini yanada yuksaltirish, o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar bo‘yicha bilim hamda ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Seminar-treninglarning ochilish qismida **Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti dekani A. Xudayberganov** texnikum o‘qituvchilari bilan samimiy muloqot o‘tkazib, ushbu mashg‘ulotlar pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish, ularni doimiy professional rivojlanishga yo‘naltirishga qaratilganini alohida ta’kidladi. **Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri R. Abidova** esa ishtirokchilarni seminar-treninglarning maqsadi, rejasi hamda kutilayotgan natijalari bilan batafsil tanishtirib, mashg‘ulotlar jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratilishini bildirdi. Dastlabki mashg‘ulot **Ingliz tili va adabiyoti kafedrasining katta o‘qituvchisi S. Atajanova** tomonidan **“Introduction to Educational Technology in Foreign Language Classroom”** mavzusida olib borildi. Unda xorijiy til darslarida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, raqamli vositalar orqali o‘qituvchilarning faolligini oshirish hamda ta’lim jarayonini interaktiv tashkil etish bo‘yicha muhim tushunchalar va amaliy tavsiyalar berildi. Mashg‘ulot ishtirokchilar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi.



*17.12.2025*

*Texnikum o'qituvchilari uchun malaka oshirish seminar-treninglari davom etmoqda.*

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti** tashabbusi bilan viloyatimizdagi texnikumlarda faoliyat yuritayotgan chet tili o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan **seminar-treninglar** o'tkazilmoqda. Bugun seminarlar boshlanishidan oldin **oliygoh rektori v.v.b. S. Xodjaniyazov** seminar ishtirokchilari bilan uchrashib, ularni seminar jarayonida faol ishtirok etish, yangi bilim va ko'nikmalarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, o'z kasbiy malakalarini yanada rivojlantirishga intilishga chaqirdi.

Seminar mashg'ulotlari **Ingliz tili va adabiyoti kafedrasining katta o'qituvchisi S. Atjanova** tomonidan olib borilmoqda. Mashg'ulotlar davomida o'qituvchilar zamonaviy dars metodikalari, interaktiv pedagogik texnologiyalar va amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar bilan tanishib, o'z malakalarini oshirmoqda.



27.12.2025

“Koreya yarim orolining geografiyasi” mavzusida seminar mashg‘uloti o‘tkazildi.

Bugun **Xorijiy filologiya fakultetida Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi S.Raxmanova** tomonidan Filologiya va tillarni o‘qitish: koreys tili ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich, 2501-guruh talabalari uchun Mamlakatshunoslik fanidan “**Koreya yarim orolining geografiyasi**” mavzusida seminar mashg‘uloti o‘tkazildi.

*Mashg‘ulot davomida talabalarning mavzu bo‘yicha bilimlari mustahkamlanib, Koreya yarim orolining geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti va muhim hududiy xususiyatlari yuzasidan muhim ma’lumotlar berildi. Seminar interaktiv usullar asosida tashkil etilib, talabalar faol ishtirok etdilar.*



**29.12.2025**

**Kengash yig‘ilishida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “2025-yilning eng faol kafedrası” tanlovining “Xorijiy grant mablag‘larini universitet hisob raqamiga tushirish” nominatsiyasi bo‘yicha Matematik tahlil kafedrası 1 – darajali, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası 2-darajali, Ma'lumotlar uzatish tarmoqlari va tizimlari kafedrası 3-darajali Diplom bilan taqdirlandi.**

*Barcha taqdirlangan jamoalarni samimiy tabriklaymiz!*



6.01.2026

## **Ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash ta’limini modernizatsiya qilish bo‘yicha Milliy forum o‘tkazildi**

2026-yil 6–7-yanvar kunlari Toshkent shahrida ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash ta’limini modernizatsiya qilishga bag‘ishlangan Milliy forum bo‘lib o‘tdi. Tadbir Britaniya Kengashi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamkorligida tashkil etildi.

Forum Britaniya Kengashining Markaziy Osiyoda ingliz tilini o‘rganishni rivojlantirishga qaratilgan "AELLCA" dasturi doirasida o‘tkazildi. Unda mamlakatimizning barcha hududlaridan ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlaydigan **55 dan ortiq davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari vakillari, jami 220 nafar ishtirokchi** qatnashdi.

Mazkur forumda **Urganch davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri R.Abidova**, shuningdek, **kafedra o‘qituvchilari F.Masharipova va X.Raximova** ham faol ishtirok etib, muhokamalarda o‘z fikr va takliflarini bildirdilar.

Tadbir doirasida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash (PRESETT) tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv dasturlari va modullarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish, reflektiv hamda inklyuziv ta’lim tamoyillarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash masalalari muhokama qilindi.



20.01.2026

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası tashabbusi bilan “AELLCA” dasturining “Ambassadors for Inclusion – creating an Inclusion in ELT module” loyihasi doirasida seminar-treninglar o‘z ishini boshladi.**

20-23-yanvar kunlariga mo‘ljallangan mazkur seminar-treninglar **“Markaziy Osiyoda ingliz tilini o‘rganishni rivojlantirish. Inklyuziv ta‘lim targ‘ibotchilari — ingliz tilini o‘qitishda inklyuzivlikni ta‘minlashga qaratilgan modul yaratish”** mavzusiga bag‘ishlangan.

Treninglarda ma‘ruza qilish uchun **Buyuk Britaniyaning Ulster universiteti professorlari Barbara Skinner** hamda **Hoeritzauer Franz Josef**, shuningdek, **Qozog‘iston Respublikasining A.Baytursunuli nomidagi Kostanay davlat universiteti Yelena Kandalina** Urganch davlat universitetiga tashrif buyurdilar.

*Tadbir avvalida mehmonlarni kutib olish marosimi tashkil etildi.*



21.01.2026

### UrDUda xorijlik mutaxassislar ishtirokida master-klass tashkil etildi

“AELLCA” dasturi doirasida **Urganch davlat universitetida** mehmon bo‘lib turgan seminar ishtirokchilari tomonidan bugun **Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası professor-o‘qituvchilari** hamda **magistrantlari** uchun master-klasslar o‘tkazildi.

Jumladan, **Buyuk Britaniyaning Ulster universiteti professori Franz Hoeritzauer Josef** “*Urganch davlat universiteti professor-o‘qituvchilari uchun faol o‘qitish metodlari*” mavzusida, shuningdek, **Kostanay davlat universiteti professori Yelena Kandalina** “*Chegaralardan tashqarida: UrDU o‘qituvchilari uchun inklyuziv ta’limda media savodxonlik*” mavzusida master-klasslar olib bordi.

Master-klass davomida zamonaviy ta’lim metodlari, faol o‘qitish yondashuvlari hamda dars jarayonida talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan amaliy tajribalar muhokama qilindi.

*Ushbu mashg‘ulot professor-o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, xalqaro tajribalarni joriy etish va ta’lim sifatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*



23.01.2026

### **Urganch davlat universitetida inklyuziv ta'lim bo'yicha xalqaro seminar-treninglar muvaffaqiyatli yakunlandi**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti **Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi** tashabbusi bilan "AELLCA" dasturi doirasida tashkil etilgan, "**Markaziy Osiyoda ingliz tilini o'rganishni rivojlantirish. Inklyuziv ta'lim targ'ibotchilari — ingliz tilini o'qitishda inklyuzivlikni ta'minlashga qaratilgan modul yaratish**" mavzusiga bag'ishlangan uch kunlik seminar-treninglar muvaffaqiyatli yakunlandi.

Treninglar davomida zamonaviy inklyuziv ta'lim konsepsiyalari, ELT (English Language Teaching) uchun inklyuziv modul mazmunini yaratish bo'yicha amaliy ko'nikmalar berildi, xalqaro tajribalar bilan o'rtoqlashildi.

*Seminar-treninglar yakunlanib, unda faol ishtirok etgan barcha professor-o'qituvchilarga sertifikatlar topshirildi.*



27.01.2026

## Universitet o'qituvchilari tomonidan maktablarda to'garak mashg'ulotlari olib borilmoqda

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetiga birlashtirilgan umumta'lim maktablari bilan hamkorlik ishlari izchil davom etmoqda. Bugun, 27-yanvar kuni **Xiva shahridagi 56-son ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini o'qituvchisi F.Iskandarov** tomonidan ingliz tili to'garagining navbatdagi mashg'uloti o'tkazildi.

Mashg'ulot **"Save the Earth" (Yer sayyorasini asraylik)** mavzusiga bag'ishlanib, o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, shuningdek, ingliz tilida erkin fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratildi. Dars jarayonida o'quvchilar atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi fikr va tashabbuslarini ingliz tilida bayon etib, turli interaktiv savol-javoblar orqali o'z bilimlarini mustahkamlashdi.

Shuningdek, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari o'rganilib, ularning kelajakda kim bo'lish istagi, tanlamoqchi bo'lgan kasblari haqida ingliz tilida suhbat olib borildi.

*Mazkur dars mashg'uloti o'quvchilar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinib, ularning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirdi.*



8.02.2026

**2026-yilning 7-8 fevral kunlari Dubaydagi Amerika universitetida "Enhancing ELT: Empowering Learners in an AI Inclusive Era" (Ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish: Sun'iy intellekt davrida ta'lim oluvchilarni qo'llab-quvvatlash) mavzusida nufuzli TESOL konferensiyasi bo'lib o'tdi.**

Ushbu xalqaro anjuman zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt va inklyuziv yondashuvlarni integratsiya qilish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda pedagogik amaliyotga tatbiq etish mumkin bo'lgan ko'plab innovatsion va samarali yechimlar muhokama qilindi.

Konferensiya doirasida **Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti Feruza Masharipova** o'zining ilmiy tadqiqotlarga asoslangan ikkita sessiyasi bilan faol ishtirok etdi. Olimaning **"Engaging Learners with Read-Aloud STEM Lessons"** (Ovozli o'qish orqali STEM darslarida o'quvchilarni jalb qilish) hamda **"Empowering English Teachers through TESOL's Six Principles"** (TESOLning olti tamoyili orqali o'qituvchilar salohiyatini oshirish) mavzularidagi taqdimotlari tinglovchilar tomonidan yuqori baholandi va soha mutaxassislari uchun muhim metodologik tavsiyalarni taqdim etdi.



**11.02.2026**

Bugun **Abu Rayhon Beruniy** nomidagi Urganch davlat universitetida **Ingliz tili va adabiyoti kafedrası** tashabbusi bilan **“Accelerating English Language Learning in Central Asia”** xalqaro loyihasi doirasida ikki kunga mo'ljallangan nufuzli konferensiya o'z ishini boshladi. Unda **Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi mas'ullari** va **Qozog'iston Baishev universiteti vakillari** hamda **Xorijiy filologiya fakulteti professor-o'qituvchilari** ishtirok etmoqda.

*Loyiha doirasida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy salohiyatini oshirish, ta'lim dasturlarini takomillashtirish, inklyuziv yondashuvlarni kengaytirish hamda davlat siyosatida ingliz tilining raqobatbardoshlik omili sifatidagi o'rnini mustahkamlash ko'zda tutilgan.*

12.02.2026

### **“Accelerating English Language Learning in Central Asia” xalqaro loyihasi doirasidagi konferensiya yakunlandi**

Bugun **Abu Rayhon Beruniy** nomidagi **Urganch davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası** tashabbusi bilan **“Accelerating English Language Learning in Central Asia”** xalqaro loyihasi doirasida tashkil etilgan ikki kunlik xalqaro konferensiya o‘z ishini yakunladi.

Kun davomida ishtirokchilar tomonidan ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy va samarali usullari, universitet va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, talaba klublari orqali til o‘rganishni rivojlantirish, inklyuziv ta’lim hamda xulosaga asoslangan baholash tizimlarini joriy etish masalalari muhokama qilinib, turli treninglar tashkil etildi. Shuningdek, yuqori samarali pedagogik amaliyotlar bo‘yicha qiziqarli ma’ruzalar va tajriba almashuvlar o‘tkazildi.

*Ikki kun davom etgan konferensiya yakunida ishtirokchilarga sertifikatlar topshirildi. Mazkur xalqaro loyiha Markaziy Osiyoda ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli bo‘ldi.*



21.02.2026

2026-yil 21-fevral kuni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida **“Hands-On STEM with Low-Cost Materials”** mavzusida xalqaro seminar-trening bo‘lib o‘tdi. Tadbir Amerika xalqaro ta‘lim kengashi hamda universitet hamkorligida tashkil etildi.

Seminarni **Xorijiy filologiya fakulteti dekani Z.Jumaniyozov** ochib berib, bugungi kunda STEM ta‘limi ustuvor va dolzarb yo‘nalishlardan biri ekanligini ta‘kidladi. Trening **“Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasida dotsenti F.Masharipova** moderatorligida olib borildi.

Tadbirda asosiy ma‘ruzachilar sifatida **AQSh hukumatining “Access” almashinuv dasturi bitiruvchisi M.Kuronbayeva** hamda **“Fulbright TEA” dasturi bitiruvchilari N.Hamrayeva, D.Qo‘chqorova va O.Jumaniyazovalar** ishtirok etib, o‘zlarining xalqaro tajribalari bilan o‘rtoqlashdilar.

Seminar-treningning asosiy e‘tibori STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) fanlarini o‘qitishda innovatsion va interfaol metodlarga qaratildi.

Amaliy mashg‘ulotlar davomida qatnashchilar nazariy bilim bilan birga, hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini yanada mustahkamladilar.



2.03.2026

2-mart kuni **Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida Filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz tili ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabalari** uchun malakaviy amaliyot konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Konferensiyada **kafedra mudiri R.Abidova** hamda **amaliyot rahbarlari** so‘zga chiqib, bahorgi semestrda talabalar 6 hafta davomida akademik guruh va individual shaklda amaliyot o‘tashlari haqida batafsil ma’lumot berdilar.

Shuningdek, malakaviy amaliyotning maqsadi, vazifalari va kutilayotgan natijalari atroflicha tushuntirilib, talabalar uchun amaliyot jarayonida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar bo‘yicha muhim tavsiyalar berildi.



7.03.2026

**UrDU jamoasi Toshkentdagi ingliz tili va inklyuzivlik bo'yicha xalqaro sammitda ishtirok etdi**

**5–7 mart kunlari Toshkent shahrida Britaniya Kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamkorligida ingliz tili va inklyuziv ta'limga bag'ishlangan xalqaro sammit tashkil etildi.**

Tadbirda Buyuk Britaniyaning 10 ta va Markaziy Osiyoning 18 ta universiteti ishtirok etib, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish hamda ta'lim jarayonida inklyuzivlikni keng joriy etish bo'yicha tajribalar almashildi.

Ta'kidlash joizki, 2025–2026-yillarda amalga oshirilayotgan “Ingliz tili va inklyuzivlik akseleratori” dasturi doirasida Buyuk Britaniya va Markaziy Osiyo oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi 11 ta hamkorlik loyihasi qo'llab-quvvatlanmoqda. Ushbu tashabbuslar gender tengligi, alohida ta'lim ehtiyojlari hamda ijtimoiy va raqamli inklyuzivlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, mintaqadagi 1000 nafardan ortiq o'qituvchi va pedagog kadrlarni qamrab oldi. **Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida mazkur loyihalarning ikkitasida hamkor sifatida ishtirok etdi.**

Sammitda **UrDU O'quv ishlari bo'yicha prorektori S.Xodjaniyazov, loyiha koordinatori R.Abidova** hamda loyiha ishtirokchilari qatnashib, **Linkoln universiteti** hamda **Ulster universiteti** bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar natijalari yuzasidan taqdimot qildilar.

Sammit doirasida ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ingliz tilini o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surildi. Tadbir doirasida **Buyuk Britaniyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Timothy Smart** hamda mamlakatdagi **Britaniya Kengashi direktori Michael Houlgate** tomonidan sammit ishtirokchilari uchun rasmiy qabul marosimi tashkil etildi.



**26.03.2026**

**Ermetova Jamila Ismoilavna Urganch davlat universiteti Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi sifatida saylandi.**

Tayinlovga qadar J. Ermetova Urganch davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası professori lavozimida faoliyat olib borgan.

J. Ermetova filologiya fanlari nomzodi, professor. "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni sovrindori. "Yil ayoli -2025" milliy tanlovi g'olibi, Xalqaro toifadagi pedagog, TESOL a'zosi. Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Hindiston markazlari koordinatori, qator xorijiy loyihalar rahbari. 120 dan ziyod ilmiy, o'quv-uslubiy materiallar muallifi.



29.03.2026

**Universitetimiz professor-o'qituvchilari xalqaro forumda ishtirok etdi**

28–29-mart kunlari Tashkent shahridagi “Hyatt Regency” mehmonxonasida **“Iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash: AQSH, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo”** mavzusida Markaziy Osiyo bitiruvchilarining birinchi forumi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur nufuzli xalqaro anjumanda **Urganch davlat universitetining Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti F.Masharipova, Kompyuter injiniring va sun'iy intellekt kafedrasida katta o'qituvchilari S.Palvanov hamda U.Salayevlar** faol ishtirok etib, o‘z bilim va tajribalari bilan munosib hissa qo‘shdilar.

Tadbir dasturi turli yo‘nalishlardagi sho‘ba majlislariga boy bo‘lib, unda STEM, sun'iy intellekt, innovatsiyalar, biznes, energetika, savdo, madaniyat, sport va turizm kabi dolzarb mavzular atroflicha muhokama qilindi. Ishtirokchilar ushbu sessiyalarda faol qatnashib, yangi bilim va ko‘nikmalarni egalladilar.

Anjuman yakunida ishtirokchilar uchun **"Coca-Cola CCI Uzbekistan" zavodiga hamda Islom sivilizatsiyasi markaziga** maxsus ekskursiyalar tashkil etildi. Ushbu tashriflar zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlari va boy milliy madaniy merosimiz uyg‘unligini yaqindan o‘rganish imkonini berdi.

*Mazkur birinchi mintaqaviy forum universitetimiz vakillari uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish hamda innovatsion loyihalarni amaliyotga tatbiq etish yo‘lida muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.*



8.06.2026

Urganch davlat universiteti Xotin-qizlar masalalari maslahat kengashi raisi, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida professori, Koreyashunoslik markazi koordinatori **Ermetova Jamila** Toshkent shahridagi Koreya ta'lim markazi tomonidan tashkil etilgan **“2026-yil Koreya ta'lim markazi va koreys tili yo'nalishi mavjud universitetlar o'rtasidagi I hamkorlik kengashi”**da ishtirok etdi. Kengash davomida Koreyashunoslik markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish, koreys tili ta'limi sifatini oshirish, oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

*Mazkur hamkorlik kengashi koreyashunoslik yo'nalishidagi ilmiy, ta'limiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*



8.06.2026

Urganch davlat universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilayotgan ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar ta'lim sifatini oshirish hamda yosh mutaxassislarni tayyorlashda ko'maklashish maqsadida kutubxona fondiga taqdim etilmoqda.

Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti, Ingliz tili va adabiyoti kafedra mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor v.b **R.X.Abidova** tomonidan o'zining muallifligidagi "**Ilmiy faoliyatga yo'naltirilgan chet tili**" nomli o'quv qo'llanmadan 10 tasi Axborot-resurs markazi fondiga topshirildi.



8.06.2026

### **UrDU Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi Oliy Majlis Senatida tashkil etilgan uchrashuvda ishtirok etdi**

8-iyun kuni Oliy ta'lim muassasalari **Xotin-qizlar maslahat kengashlari raislari** uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslari doirasida Oliy Majlis Senatiga tashrif uyushtirildi. Mazkur tashrifda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raisi, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası professori **Jamila Ermetova** ham ishtirok etdi.

Uchrashuvda senatorlar tomonidan tinglovchilar bilan samimiy va ochiq muloqot tashkil etildi. Unda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kuchaytirish, ularning boshqaruv sohasidagi faolligi, yetakchilik qobiliyati hamda tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, gender tenglik tamoyillarini hayotga izchil tatbiq etish, ularning davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

*Tashrif ishtirokchilari mamlakatimizda parlament faoliyatining asosiy yo'nalishlari bilan yaqindan tanishdi.*

